

**BANK-MOLIYA AKADEMIYASI TINLOVCHISI
NEFT-GAZ SANOATIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.****Ibragimov Azizbek Vaxobovich**

Annotatsiya: Maqolada "Neft-gaz sanoatining" ning rivojlanishi mamlakatimizda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, cheklangan, qayta tiklanmaydigan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirishda yetakchi o'rinni egallash, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida "iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft- gaz mahsulotlarini uzlusiz yetkazib berilishini ta'minlash" strategiyasida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va cheklangan, qayta tiklanmaydigan iqtisodiy resurslar sharoitida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish vazifalarini hal etish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy farovonlik, energiya samaradorligi, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, ekologik muammolar, yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, inson kapitali, iqtisodiy o'sishning milliy strategiyasi.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda neft-gaz sanoatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, texnik-texnologik bazasini modernizatsiyalash, milliy ishlab chiqarishga xorijiy investitsiyalarni keng jalgan shart-sharoitlar yaratish hamda neft-gaz sanoatini barqaror rivojlantirish kabilarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida "iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft- gaz mahsulotlarini uzlusiz yetkazib berilishini ta'minlash" kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda neft-gaz sanoati subyektlarining investitsion manfaatlarini himoya qilish va loyihalarini amalga joriy qilish barqarorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, neft-gaz sanoati korxonalarini innovatsion-investitsion faoliyatni samaradorligining prognoz parametrlarini asoslash, sohani kompleks rivojlantirishda raqamlashtirilgan kombinatsiyalarni keng qo'llash kabi tadqiqotlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 avgustdagi PQ-5233- son "Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 5 maydagi PQ-3697-son "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020 yil 4- apreldagi PQ-4664-son "Neft-gaz tarmog'ining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida", 2019 yil 9 iyuldagi PQ- 4388-son "Aholi va iqtisodiyotni energiya resursslari bilan barqaror ta'minlash, neft- gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari,

2017 yil 17 oktyabrdagi PF-5207-son “Neft-gaz sohasining boshqaruv tizimini takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni, hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

TEGISHLI ISH

Neft-gaz sanoati loyihibalarini boshqarish tajribalarining nazariy va amaliy jihatlari ilmiy jihatdan chuqur o‘rganildi.

Neft-gaz korxonalarida innovatsion-investitsion faoliyatni samarali tashkil etish va uni keng ko‘lamda rivojlantirish masalalari mamlakatimizning yetakchi olimlari M.A. Maxkamova, M.A. Ikramov, G.A. Samatov, G.J. Allaeva, Z.T. Gaibnazarova, Sh.I. Otajonov, D.A. Ismoilov, G.Sh. Karabaevalarning⁵ ishlarida, shuningdek, neft- gaz sanoati korxonalarida innovatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmi, innovatsion salohiyatni rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, neft-gaz tarmog‘i korxonalarining xalqaro marketing strategiyasini takomillashtirish masalalari D.B. Parpiev, G.K. Taraxtieva, S.A. Nabieva ishlarida chuqur o‘rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy kuzatuv, tizimli va iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, kompleks baholash, guruhash, statistik, korrelyatsion va regression tahlil, prognozlash usullaridan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot ishida jahon tajribasi doirasida neft va gaz sanoati korxonalarining innovatsion-investitsion faoliyatini va uning samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli strategiya, baholash uslublari va yondashuvlar o‘rganilgan.

Tadqiqotda milliy neft va gaz sanoati korxonalarining innovatsion-investitsion faoliyatining baholanishi, uning doirasida korxonalarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini boshqarish asoslarining takomillashuvi tadqiq etilgan hamda mavjud muammolar aniqlanilgan.

Sanoat korxonalarining asosiy mahsuloti rentabelligi pasayishi innovatsion-investitsiyalar iqtisodiy samaradorligining barqaror pasayishiga olib keladi. Neft va gaz sanoati korxonalari orasidan 3 ta yirik “O‘zneftgazqazibchinarish” AJ, “O‘ztransgaz” AJ, “O‘zneftmahsulot” AJ singari tashkilotlarning innovatsion- investitsion salohiyati bo‘yicha ko‘rsatkichlari 1-rasmida aniqlangan.

Neft-gaz sanoatiga kiritilgan moliyaviy innovatsion investitsiyalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, 2013 yildan 2015 yilgacha neft va gaz sanoatida iqtisodiy sur’atlar yana yuqorilab bordi. 2017 yildan 2018 yilga qadar moliyaviy innovatsion-investitsiyalarining o‘zini samaradorligi sohani tubdan o‘zgartirishga qaratilgan harajatlar yuqoriligi tufayli natijalar pastlab ketgan. Bunga esa asosiy sabab shundaki, 2013 yilda O‘zbekistonda neft va gaz ishlarini hamkorlik asosida yuritishda ko‘plab xorijiy kompaniyalarining raqobat maydonidagi ishtiroki tufaylidir.



1- rasm. Neft-gaz sanoatiga kiritilgan moliyaviy innovatsion-investitsiyalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari, 2013-2021 yy. (foizda)

2019 yildan boshlab barcha ko'rsatkichlar korxonalarda salmoqli sura'tlarda o'sishni boshladi, bu barqarorlik 2021 yilga qadar o'suvchi xarakterga ega bo'ldi.

Buning asosiy sababi, mamlakatimizda raqamlashtirish infratuzilmasidagi izchil transformatsiya jarayonlari innovatsion muhit va investitsion iqlimi rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Hozirgi kunda neft-gaz sanoati korxonalar mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining umumi pasayishiga olib keluvchi salbiy oqibatlarni kamaytirish imkonini beruvchi o'z innovatsion-investitsion strategiyasini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda, neft-gaz sanoati korxonalar ko'plab tashqi omillarning salbiy ta'siriga qarshi kurasha olmasa-da, ammo yuzaga kelgan sharoitda ular innovatsion-investitsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining umumi pasayishiga olib keluvchi salbiy oqibatlarni kamaytirish imkonini beruvchi o'z innovatsion-investitsion strategiyasini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Mustaqillik davrining dastlabki yillarda neft-gaz sanoati korxonalarida innovatsion-investitsion jarayonlar rivojlanish darajasini pastligiga sabab bo'lgan asosiy omil – neft-gaz sanoati korxonalarida qo'llanilayotgan texnika va texnologiyalarning eskirganligi, zamonaviy standartlarga to'liq javob bera olmasligi va ularning amortizatsiya ajratmalari yuqori darajada bo'lganlidadir.

Aniqlanishicha, sanoat korxonalarining rivojlanish dasturlari va ularning innovatsion-investitsion faoliyati omillari samaradorligini obyektiv baholashning amaldagi usullari va ularni qo'llash jarayonida aniqlangan mavjud kamchiliklarni hisobga olgan holda, dasturiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan yakunlovchi natijalar va resurslar sarfi uchun faoliyat ko'rsatkichlari tizimi yetarli darajada rivojlanmagan.

Ko'rsatkichlarning barchasi «O'zbekneftgaz» AJning innovatsion-investitsion faoliyati samaradorligini oshirishga qanshalik ta'sir etganini amerikalik iqtisodchi olim Garri Markavitsning "Portfeyl samarasi" modeli asosida baholash orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (2-jadval).

«O'zbekneftgaz» AJning mavjud innovatsion-investitsion loyihalarining portfeyl samarasi (2013-2022 yy)

| Йиллар | «Ўзбекнефтгаз» АЖнинг мавжуд инновацион-инвестицион лойиҳаларнинг портфейл самараси | | Инновацион ва инвестицион лойиҳалаштириши фоалиятининг ўсиш суръати |
|--------|---|------------------------|---|
| | млрд.Ақш долларда | Риск даражаси %, 100/0 | |
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| 2013 | 2078,6 | 100/30 | 0 |
| 2014 | 2415,4 | 100/43 | 116% |
| 2015 | 3139,5 | 100/45 | 130% |
| 2016 | 3338,1 | 100/32 | 106% |
| 2017 | 3514,1 | 100/31 | 105% |
| 2018 | 4820,8 | 100/30 | 137% |
| 2019 | 5059,6 | 100/30 | 105% |
| 2020 | 5342,5 | 100/33 | 106% |
| 2021 | 5445,2 | 100/29 | 102% |
| 2022 | 5478,3 | 100/28 | 101% |

2-jadvalda «O'zbekneftgaz» AJ ning investitsiyalarni kiritishda hamda innovatsion loyihalarni tadbiq etishda hisobga olingan risklar bo'yicha minimal kutilgan daromad 2-ustunda keltirilgan bo'lib, ularning risklarni ishlab chiqarish sikli aylanmasi davomida hisobga olingan maksimal yo'qotishlar foizlari keltirilgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2015 yilda kuzatilgan bo'lib, buning asosiy sababi mamlakatimizda milliy neft-gaz sanoati korxonalar bilan alyans korxonalarning raqobatlashuvi investitsion muhit va jozibadorlikka ta'sir doirasi hamda innovatsion ishlanmalarni taraqqiy ettirish hamda tadbiq etishda soha infratuzilmasining to'laqonli tayyor emasligi bo'lgan. «O'zbekneftgaz» AJ 2016 yilda risk darajasini Hukumat kafolatlari tufayli salkam 10 foizga pasaytirishga muvaffaq bo'ldi, 2017 yilda "Taraqqiyot strategiya"si doirasida keng ko'lamli maqsadli dastur va loyihalar tufayli amalga oshirilgan tarkibiy va tuzilmaviy o'zgarishlar portfeyl samarasini oshirishga sabab bo'ldi.

Portfeyl samarasidan foydalangan holda innovatsion va investitsion loyihalarni tenderlashda inobatga olinishi «O'zbekneftgaz» AJning davriy o'zgarishlardagi risklarga bardosh bera olishi investitsion jozibadorlikni oshirishga ham turtki bo'ldi. Buning natijasida texnologik investitsiya ko'lamida innovatsion faoliyat rivojlanib bordi (3-jadval).

1-

jadval

**"O'zbekneftgaz" AJga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi,
(2017-2022 yy, mlrd.so'm)**

| Ko'rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 |
|--|--------|--------|--------|--------|--------|
| Asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmi | 1923,4 | 2686,6 | 3903,4 | 3766,9 | 3508,1 |
| Shundan: | | | | | |
| Qurish-montaj ishlari | 719,2 | 706,9 | 725 | 768,2 | 618,4 |
| Mashina va uskunalar | 674,6 | 794,1 | 1055,9 | 940,2 | 609,3 |
| Boshqa texnik-texnologik vositalar | 529,6 | 1185,6 | 2122,5 | 2058,5 | 2280,4 |

Korxonalarini iqtisodiyotning mutanosiblik kategoriyasiga asosan investitsiyalarni kiritishni hamda innovatsion texnologik qurollanishni ta'minlash talab etiladi. Aks holda, innovatsion texnologik vositalarning amortizatsiyasi oshib boradi, natijada belgilangan muddatga yetmay ilg'or texnologiyalar ta'mirtalab bo'lishi jadalligi oshadi. Bu innovatsion-investitsion faoliyatning samaradorlikka salbiy ta'sir qilishi dastlabgi texnologiyalarni tadbiq etgan yillarda bilinmasa-da, o'rta muddatli oraliqda albatta kritik jihatlarini namoyon eta boshlaydi. Mazkur holatda amerikalik jurnalist Dj.Xau tomonidan 2006 yilda taklif etilgan "Kraudsorsing" modelini qo'llash tavsiya etiladi.

XULOSA

Tadqiqot ishini bajarish jarayonida tegishli ilmiy xulosalar olindi hamda u asosida taklif va tavsiyalar shakllantirilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish asnosida mamlakatimizda neft- gaz sanoati korxonalarining innovatsion-investitsion faoliyati samaradorligini oshirish mavzusi yuzasidan manbalar deyarli yo'q ekanligi tufayli hamda ularning aksariyat qismi alohida innovatsion faoliyat yoki investitsion faoliyatga qaratilganligi bilan mazkur tadqiqot ishini uslubiy va nazariy asoslarini takomillashtirishni taqozo etdi.

2. "O'zbekneftgaz" AJ tarkibiy tizimidagi korxonalarining innovatsion-investitsion faoliyati samaradorligini oshirishda loyihalarning tavakkalchiliginu pasaytirish yuzasidan me'yor va istiqbolini baholash maqsadida usul ishlab chiqishni zaruriyatini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, "portfeyl samara" usulini mualliflik yondashuvi asosida mamlakatning iqtisodiyotining moliyaviy-tashkiliy holati va qonuniyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish taklifi ilgari surildi.

3. Mamlakatdagi mavjud neft-gaz sanoati korxonalarini innovatsion- investitsion faoliyatini mutanosib o'sishini ta'minlash maqsadida ochiq innovatsiyalar bozori hamda erkin investitsiyalar oqimi uyg'unligini saqlashga qaratilgan kraudsorsing modeli va uning qamrovidagi modellarni o'z ishiga olgan strategiyani ishlab chiqish talab etilgani bois, krauddayrekting strategiyasi darajasiga qadar takomillashtirildi va tavsiyaviy xarakteri iqtisodiy jihatdan asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomashtirish va uning boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 09.07.2019 yildagi PQ-4388-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.04.2022 yildagi PF-101-son.
3. International Energy Agency (IEA). "The Oil and Gas Industry in Energy Transitions – Analysis." Retrieved from IEA.
4. McKinsey & Company. "How oil and gas companies can lead in the energytransition." Retrieved from McKinsey.
5. Шевчук Д. Организация и финансирование инвестиций. – Litres, 2022.
6. Farooq U. et al. Impact of air pollution on corporate investment: New empirical evidence from BRICS //Borsa Istanbul Review. – 2023.
7. Frolova L. et al. Model for opportunities assessment to increase the enterprise innovation activity //Business: Theory and Practice. – 2021. – T. 22. – №. 1. – C. 1-11.
8. Климова Е. С., Бальчевская О. В. Организация и финансирование инвестиций. – 2023.
9. Алехина О. А. Инвестиционная деятельность предприятий //Аллея науки. – 2018. – Т. 1. – №. 1. – С.